IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab–quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2022 yilning 1 iyul holatiga 22 909 ta kichik biznes subyektlarini (dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2021 yilning shu davriga nisbatan 111,3 foizga ko‘pdir).

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
2022 yilning 1 iyul holatiga (jamiga nisbatan foizda)
(dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 31,3 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ida (24,4 %), sanoat sohasida (19,7 %) va qurilishda (4,4 %) tashkil etilgan.

2022 yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– investitsiyalar hajmi 2 817,9 mlrd. so‘mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 63,3 %) o‘zlashtirildi va 2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘sish sur’ati 81,9 foizni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 1 614,6 mlrd. so‘mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 94,0 %) va 2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘sish sur’ati 104,5 foizni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2 627,9 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining улуши 51,0 %) tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 2 186,9 mlrd. so‘mlik ko‘rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 59,0 %) 2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘sish sur’ati 110,0 foizni tashkil qildi;

– chakana tovar aylanmasi 4 158,3 mlrd. so‘mni (jami chakana tovar aylanmasining 82,7 %) 2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘sish sur’ati 109,8 foizni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 46,9 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 43,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 208,1 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 86,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;

– avtomobil transportida 15 911,4 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 93,5 %) 2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘sish sur’ati 101,5 foizni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 45 234,7 ming yo‘lovchi tashilib (umumiy yo‘lovchi tashishdagi ulushi 94,2 %) 2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘sish sur’ati 101,2 foizni tashkil qildi;

2022 yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi – 75,5 foizni, sanoatda – 51,0 foizni, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 99,3 foizni, qurilishda – 94,0 foizni, eksportda – 86,4 foizni tashkil qilgan.



Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so‘mda)

2022 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik biznesda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Jizzax viloyati bo‘yicha eng ko‘proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahar (595,0 mlrd. so‘m), G‘allaorol (1 031,6 mlrd. so‘m), Forish (227,4 mlrd. so‘m) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

2022 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati



Jizzax viloyati bo‘yicha ko‘p xizmatlar hajmi Jizzax shahrida (548,2 mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (396,7 mlrd. so‘m), G‘allaorol (242,5 mlrd. so‘m) va Zomin (220,6 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2022 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy ko‘rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi, *% da*

	Sanoat	*Qurilish*	*Xizmatlar*	*Qishloq xo‘jaligi*
Jizzax viloyati	**51,0**	**94,0**	**60,9**	**99,3**
shahar:				
Jizzax	39,5	94,0	34,9	99,8
tumanlar:				
Arnasoy	51,1	100,0	79,1	100,0
Baxmal	100,0	100,0	67,2	100,0
G‘allaorol	98,0	98,9	80,4	100,0
Sharof Rashidov	53,0	100,0	82,5	99,8
Do‘stlik	13,5	100,0	73,0	99,8
Zomin	54,8	71,6	74,0	96,6
Zarbdor	21,9	93,5	76,1	100,0
Zafarobod	4,0	98,2	78,7	100,0
Mirzacho‘l	100,0	90,1	64,0	97,9
Paxtakor	67,5	100,0	78,5	97,5
Forish	91,4	100,0	81,3	99,9
Yangiobod	100,0	100,0	73,9	100,0

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko‘rsatkichlari sohalar bo‘yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog‘ida kichik tadbirkorlik Zafarobod (4,0 %), Do‘stlik (13,5 %), Zarbdor (21,9 %) tumanlarida nisbatan kam, Baxmal (100,0 %), Mirzacho‘l (100,0 %),Yangiobod (100,0 %) tumanlarida nisbatan yuqori ulushni tashkil etadi.

- qurilish tarmog‘ida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Zomin tumanida (71,6 %), Mirzacho‘l tumanida (90,1 %) kam foizni qolgan tumanlarda esa yuqori o‘ringa ega.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida (34,9 %), Mirzacho‘l tumani (64,0 %) qolgan hududlarga nisbatan kam bo‘lishiga qaramasdan, hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o‘ringa ega.

- qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo‘shimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.